



## RAQAMLI IQTISODIYOTNING GLOBAL IQTISODIY TIZIMDAGI O'RNI VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARI

**Abloqulova Zarina Farxodovna**

*Toshkent Davlat Iqtisodiyat Universiteti Iqtisodiyot yo'nalishi*

*1-kurs talabasi*

*+998934754507*

*zarinaabloqulova3@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda raqamli iqtisodiyotning hozirgi kunda global iqtisodiy tizimga qanday samara berayotganligi hamda buning natijalari asosida qanday o'zgarishlarga sabab bo'layotganligi haqida tahlil qilishga bag'ishlangan. So'nggi yillarda raqamli iqtisodiyot sharoitida turli xil tarmoqlarni hozirgi kundagi dolzarb mavzulardan biri ekanligi, raqamli iqtisodiyotda yangi texnologiyalardan foydalanish orqali global iqtisodiy tizimning samaradorligini oshirish va bu orqali iqtisodiy barqarorlikda keng imkoniyatlarga erishishni ta'minlaydi. Raqamalashtirish orqali yuzaga keladigan muammolar jumladan, xavfsizlik, maxfiylikni o'z ichiga oladi. Raqamli iqtisodiyotda texnologiyalardan samarali foydalanish va ularni iqtisodiy tizimga to'laqonli tadqiq etishdan iboratdir.

**Kalit so'zlar:** raqamlashtirish, global, texnologiyalar, innovatsiyalar, raqobatlashtirish, raqamli iqtisodiyot, maxfiylik.

**Abstract:** This thesis analyzes the current impact of the digital economy on the global economic system and the resulting transformations. It highlights that integrating new technologies across various sectors is a critical, contemporary issue, enhancing efficiency and fostering stability in the global economy. The work also addresses challenges arising from digitalization, including security and privacy concerns. The core focus is on the effective utilization and full implementation of technologies within the economic system.

**Keywords:** Digitalization, Global, Technologies, Innovations, Competitiveness, Digital Economy, Privacy.

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyotda turli xil axborot texnologiyalaridan foydalanish raqamli platformalar va innovatsiyalarni asosiy ishda yaxshilanishga erishishdir. Texnologik o'zgarishlar, ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida, ishlab chiqarish jarayonlaridan tortib, xizmatlar ko'rsatish va savdo faoliyatlarigacha bo'lgan barcha sohalarida jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tezisda texnologiyalar va innovatsiyalarni raqamli iqtisodiyotda qanday qo'llash mumkinligi, shuningdek, bu jarayonda yuzaga keladigan imkoniyatlar va muammolar tahlil qilinadi. [1,118-b.] Turli xil texnologiyalar ayniqsa iqtisodiy tizimni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishdan tortib biznes shakllarini optimallashtirish shuningdek bular orqali raqamli iqtisodiyotning global iqtisodiy tizimdagi raqobatbardoshlikni shakllantirishga qaratilgan. Raqobatlashish natijasida yuzaga keladigan ijobiy taraflarni iqtisodiyotning turli sohalarida qo'llash mumkin jumladan ma'lumotlarni

tahlil qilish, su'niy intellekt, IT sohalarida, bozor iqtisodiyoti va boshqalar. Raqamli iqtisodiyot orqali iqtisodiy tizimda ma'lumotlarni tahlil qilish, ularni yig'ish hamda tez va samarali usullar yordamida sezilarli darajada o'zgarishga erishishdir.

Ushbu tadqiqotning maqsadi Raqamlashtirish orqali jamiyatning ehtiyojlarini yaxshilash, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, cheklangan resurslardan samarali foydalanish orqali iste'molchilarning cheksiz ehtiyojlarini qondirishga qaratilganidir. Raqamli iqtisodiyot nafaqat iqtisodiyotni yanada samarali qilishni, balki iqtisodiy inqilobni ham yuzaga keltiradi. Iqtisodiyotning raqamli shakli yangilik va innovatsiyalarni hayotga tatbiq etishda o'zgacha ahamiyatga ega. U bozorlardagi raqobatni kuchaytiradi, yangi startaplarni rivojlantiradi va yangi ish o'rinlarini yaratadi. Raqamlashtirish jarayoni iqtisodiyotning barcha sohalarini modernizatsiya qilib, eski ish uslublarini o'rnini yangi, zamonaviy tizimlarga boshlab beradi. [2,523-b.] Odatda turli xil innovatsiyalarni qo'llash mumkin bo'lgan sohalar; biznesni avtomatlashtirish orqali samaradorlikni oshirish hamda raqobatbardoshlikni saqlab polish global iqtisodiy tizimda, yangi mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqish, iste'molchilarning ehtiyojini yetarlicha qondirishdan iboratdir. Yuqorida aytganimizdek, raqamli iqtisodiyotning shakllari iqtisodiy tizimning barcha sohalariga kirib borgan va bu global iqtisodiy tizimning rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan birga, davlat-jamiyat aloqalarida turli muammolar ham yuzaga kelmoqda. Birinchi navbatda, maxfiylik va ma'lumotlar xavfsizligi masalalari: fuqarolar ma'lumotlari himoyasi, maxfiylik huquqlari borasida xavotirga ega bo'lsa, davlat xizmatlaridan foydalanishga va ishtirokga bo'lgan munosabat susayishi mumkin. Ikkinchi — texnologik suverenitet va tartibga solish muammolari: raqamli texnologiyalar global darajada

rivojlangan bo'lgani uchun davlatlar o'z suverenitetini saqlash, ma'lumot fluxing nazorat qilish, xalqaro raqobatga moslashish yo'lida qiyinchiliklarga duch kelmoqda. [3,273-b.]

Shu nilan birgalikda, dunyoning ayrim qismlari (rivojlanmagan mamlakatlar. qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan, sun'iy yo'ldoshga ega bo'lmagan davlatlar) raqamli texnologiyalardan kam foydalanyapti yoxud umuman foydalanishga imkon bo'lmayapti, davlat-jamiyat aloqalaridan orqada qolishiga sabab bo'lmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli iqtisodiyotning global iqtisodiy tizimga qamday ijobiy sifatlari olib keladi. Bular texnologiyalar va innovatsiyalar orqali global iqtisodiy bozorga kirish va raqobatbardoshlikni saqlab qolish, erishish orqali biznesda yuksak natijaga qayd etishmoqda. Bundan tashqari texnologiyalar va innovatsionlarni muvaffaqiyatli tatbiq qilish orqali ma'lumot bazalari, sun'iy intellekt, IT sohasi, internet aloqalari anchagina yaxshilanishi natijasiga erishildi. Buning asosiy sababi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb qilish, raqamlashtirish ishtirokida iqtisodiy tizimda rivojlantirilmoqda.

Xulosa qilib aytdadigan bo'lsak, Raqamli iqtisodiyotda texnologiyalar va innovatsiyalarni muvaffaqiyatli qo'llash, iqtisodiyotni samarali rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va global iqtisodiy tizimda yuksak natijaga erishish, bizneslararo raqobatbardosh bo'lish

imkoniyatlarini yaratadi. Biroq, bularning amalga oshirilishi uchun maxfiylikka e'tibor berish, resurslarni yetarli ta'minlash va investitsiyalar zarur. Innovatsiyalarni qo'llashning muvaffaqiyati shuningdek, xavfsizlik, maxfiylik va raqobat masalalarini ham yechishni talab qiladi. Shu boisdan, texnologiyalar va innovatsiyalarni raqamli iqtisodiyotda amalga oshirish bo'yicha izchil strategiyalar ishlab chiqish va global iqtisodiy tizmda tadbqiq etish hamda o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitda o'zgarishlar yaratishda muhim ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Elov F. Raqamli iqtisodiyotning davlat va jamiyat aloqalarini yanada rivojlantirish omili sifatida // Yangi renessansda ilm-fan taraqqiyoti. – 2025. – № 1 (1). – B. 271–275.
2. Tozaboyeva G. Raqamli iqtisodiyot sharoitida texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llash // Новости образования: исследование в XXI веке. – 2025. – № 4 (39). – B. 117–120.
3. Yuldasheva S. Raqamli iqtisodiyot va iqtisodiy inqilob: raqamlashtirishning afzalliklari // Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. – 2025. – № 1 (8). – B. 522–526.